

“NAVOIY VA SHEKSPIR IJODINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI”

Ravshanova Nozima

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti

universiteti Amaliy filologiya yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

E-mail: nozimaravshanova77@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ikki buyuk daho — Navoiy va Shekspir ijodidagi tipologik xarakter, badiiy xususiyatlar haqida so‘z yuritiladi. Asarlardagi elementlar va janrlarning g‘arb va sharq el-ulusi hayotidan hikoya qiluvchi boy mazmuni ifodalanadi.

Kalit so‘z: Sharq uyg‘onish davri, G‘arb renessansi, Rome va Juletta, Layli va Majnun.

ABSTRACT

This article talks about the typological character and artistic features of the works of two great geniuses - Navoi and Shakespeare. The rich content of the elements and genres in the works, which tell the story of the life of the Western and Eastern tribes, is expressed.

Keywords: Eastern Renaissance, Western Renaissance, Rome and Juliet, Layli and Majnun.

“Ishq buyuk Navoiy talqinida hayot va koinot yaratilishining maqsadi sifatida qo‘yilarkan, xuddi shu nuqtada u buyuk Dante va Shekspir bilan mushtaraklikka erishadi. Dante, Navoiy va Shekspirning yuksak badiiy tafakkurlari – fazodagi uchrashuv ana shu tarzda voqe bo‘ladi”.

Nazar Eshonqul

Sharq-u g‘arbning buyuk daholari Alisher Navoiy va Uilyam Shekspir ijodini talqin qilish, asarlardagi tipik va badiiy xususiyatlarni o‘rganish uchun katta iqtidor va bilim zarur, albatta. Aslida bu daholar ijodidagi xazina o‘xshashsiz o‘rganiladi. Hozirga qadar Alisher Navoiyning ko‘plab ilmiy-badiiy asarlari xorijiy tillarga tarjima qilindi, bu olamshumul ahamiyatga ega meros bo‘yicha yuzlab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ammo hanuzgacha buyuk shoirning ijodiy uslubi, adabiy-estetik tamoyillari, san’atkorlik mahorati uning o‘zi kabi uyg‘onish davrida yashab ijod qilgan G‘arb shoir-u mutafakkirlarining ijodi bilan qiyoslab o‘rganilmadi. Navoiyni g‘arb adabiyotining yirik namoyandalari qatoriga qo‘yib ulug‘lash hollari ko‘p kuzatiladi, lekin biror asari hozirgacha ularning muayyan bir asari bilan solishtirilib ilmiy tekshirilmagan. Zero, bu yo‘nalishdagi ishni ham bajarish lozimligi hozirgi zamon qiyosiy adabiyotshunosligida dolzarb masala hisoblanadi.

Navoiy talqinidagi qahramonlar voqelikka zid ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan odamni benihoya madh etganlari uchun bahodir sanaladi. Buyuk “Hamsa” asaridagi Majnun, Bahrom va Farxodlar ana shu qahramonlardan, zero, ziddiyatli holatlarda o‘zgarishlar, mamlakat ishlaridagi cheklanishlar sodir bo‘ladi. Jumladan, “Sab’ai sayyor” asarida shoir Bahromni shunday baholaydi:

“Buyla taklif kimsa qilg‘aymu?

Odamiydan bu so‘z ochilg‘aymu”.

Bahrom yetti qasr bino qildiradi. Yetti iqlim shohining yetti go‘zal qizini keltiradi. O‘zi esa kecha-yu kunduzni may ichish bilan o‘tkazadi. Qizlarni tinmay afsonalar aytishga majbur qiladi: “Sizlar paydar-pay aytavering, to‘xtamang. Men esa uyquda orom olay”, - deydi u.

Asarda asosiy hikoya davom etayotganda boshqa hikoyalarni berib borish Sharq adabiyotida qo‘llanilgan muhim badiiy vositadir. Navoiy undan juda katta mahorat bilan foydalanadi va asarni ijobiy ma’noda murakkablashtiradi. Ko‘p masalalarni qamrab olishga erishadi. Bundan tashqari, asarlardagi ko‘p voqealar geografik joyi boshqa manzil bo‘lsa-da, mutafakkir o‘z vatanidagi ijtimoiy munosabatlarni nazarda tutadi.

Shekspir G‘arb adabiyotining buyuk dahosi, G‘arbning navosidir. Shekspirning adabiy merosi she‘riyat va drammaturgiya asarlaridan iborat. Yoshlik yillarida mifologik syujet asosida yozgan “Venera va Adonis” (1593) hamda Rim tarixiga oid “Lukretsiya” (1594) dostonlari samimiy kutib olingan. Bu asarlar, ayniqsa, 1592—1600 yillarda yozilgan “Sonetlar” Shekspirning Uyg‘onish davri madaniyati bilan uzviy aloqada maydonga kelganini ko‘rsatdi. Jahon lirikasining buyuk namunalari qatoridan o‘rin olgan Shekspir sonetlari mavzu jihatidan ikki guruhga ajraladi: dastlabki 126 sonet shoirning yaqin do‘stiga bag‘ishlangan bo‘lsa, 127—152-sonetlarda lirik qahramonning bevafoqlik qilgan mahbubaga nisbatan muhabbat tuyg‘usi va iztiroblari tasvir etilgan. Shekspir yana bir necha dostonlar ham yozgan bo‘lsada, ularning muallifi masalasi hamon bahslidir. “O‘n ikkinchi kecha” (1600) singari mashhur komediyalari ham shu davrda maydonga kelgan. Drammaturg ijodining shoh asarlari — “Yuliy Sezar” (1599), “Hamlet” (1601), “Otello” (1604), «Qirol Lir» (1605), “Makbet” (1606), “Antoniy va Kleopatra”, “Koriolan” (1607) singari tragediyalar Shekspir ijodining uchinchi davrini tashkil etadi. “Genrix VIII” (1613) xronikasi, “Qish ertagi” (1611), “Bo‘ron” (1612) romantik drama va tragediyalari esa Shekspirning so‘nggi davr ijodi mahsulidir. “Romeo va Juletta” dagi ko‘p jihatlar 130 yil oldin yozilgan “Layli va Majnun” dostoniga juda o‘xshaydi. Garchi “Layli va Majnun” afsonasi syujeti XVI asrda Yevropaga ma‘lum bo‘lgan va shu afsona ta‘sirida o‘nlab Yevropa xalqlarining sevgi afsonalari vujudga kelgani haqidagi tadqiqotlar mavjud esa-da, biz ilmga hurmat nuqtai nazaridan Shekspir asari Layli va Majnun afsonasining g‘arbcha varianti, Shekspir sharq afsonasini yevropalashtirgan degan xulosadan o‘zimizni tiyamiz. Biroq Romeo va Julettadagi nafaqat umumiy syujet liniyasi, balki qahramonlar ham, xarakterlar ham, asar qurilishi ham “Layli va Majnun” asarining aynan o‘zidir. “Layli va Majnun” dostonida Navoiy “Firoqnoma” deb atagan asar so‘ngida Layli jon taslim qiladi. Buni eshitgan Majnun Layli yotgan uyga uchib kirib, uning yonida jon beradi.

“Romeo va Juletta” asarida ham Romeo Julettani o‘ldi deb o‘ylab, u yotgan sag‘ana boshida turgancha zahar ichadi.

Alisher Navoiy sharq Uygʻonish davrining daho mutafakkiri, Uilyam Shekspir esa Gʻarb Renessansining yirik vakili boʻlganliklari, bu ikki benazir sanʼatkor oʻz ijodlarida inson kamoloti va jamiyat maʼnaviy taraqqiyoti masalalarini birday koʻtarib chiqqanliklari bois, ularning ham mavzu, ham syujet, ham badiiy timsollar yaqinligi jihatidan, yonma-yon tilga olinadigan ikki asarlarini qiyosiy oʻrganishni maqsad qildik. “Layli va Majnun” hamda “Romeo va Juletta” asarlari shoirlar ijodiy uslublari xususiyatlari nuqtai nazaridan oʻrganilsa, maqsadga muvofiq boʻladi, deb²⁰ I.Karimov. Navoiy shahrida Alisher Navoiy yodgorlik majmuining ochilishiga bagʻishlangan tantanali marosimda soʻzlangan nutq (Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati, 2001, 25-avgust. 4-son) hisobladik. Oʻzbek adabiyotshunosligida hanuzgacha bunday qiyosiy ish bajarilmaganligi, “Navoiy va jahon adabiyoti” mavzusi adabiyotshunoslik fanimizda nisbatan yangi soha boʻlib, bugungacha sanoqligina ishlar amalga oshirilgan»ligi, bugungi kunda esa shu usuldagi tadqiqotlarga ehtiyoj paydo boʻlganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Zamonaviy jahon adabiyoti va madaniyatining integratsiyalashuv jarayonlariga mos kelganligi bois, XIX asrga kelib toʻliq shakllangan qiyosiy adabiyotshunoslik hozirda filologiyaning yetakchi sohalaridan biriga aylandi. A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, M.P.Alekseyev, I.G.Neupokoyeva, D.Dyurishin, A.Dima singari dunyo ilmiy jamoatchiligi tan olgan olimlar esa ushbu soha nazariy va amaliy asoslarining shakllanishiga munosib hissa qoʻshdilar. Atoqli sharqshunoslar Ye.Bertels, N.Konrad hamda V.Jirmunskiy jahon adabiyotini muayyan qitʼalar, xalqlar boʻyicha emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy davrlar boʻyicha tahlil etishni taklif qiladilar. Ularning fikricha, bir xil ijtimoiy-siyosiy sharoitda oʻxshash mafkura, gʻoya va qarashlar paydo boʻlishi, shu zaminda bir-biriga yaqin adabiy hodisalar, oqimlar shakllanishi, mushtarak obrazlar (hatto tasviriy usullar) yuzaga kelishi tabiiydir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ular bu masalaga alohida yondashdilar. Akademik N.I.Konrad “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarini Yevropa Renessansining shu mavzudagi eng yaxshi asarlari qatoriga

20 Hayitmetov A.Temuriylar davri oʻzbek adabiyoti.-Toshkent: Fan, 1996.-73-bet.

qo‘ygan edi. Akademik V.M.Jirmunskiy esa Farhod obrazida Renessans davrining idealini ko‘rgan. Ye.E.Bertels Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini fransuzlarning “Tristan va Izolda”, V.Shekspirning “Romeo va Juletta” asarlari bilan o‘xshashliklarini ta’kidlab fikr bildirgan. O‘zbek olimlaridan N.Komilov, F.Sulaymonova, D.Salohiy Sharqning G‘arbga ta’siri masalasini ko‘tarib chiqdilar hamda tafakkur taraqqiyotida va ijod silsilasida Sharqning alohida mavqei ko‘rinadi.

Shekspirning eng mashhur asarlaridan bo‘lgan “Makbet” va “Gamlet”da ham fantaziya elementlari mavjud. “Gamlet”da — bu Gamlet otasining ruhi, “Makbet”da biz jodugarlar va ular chaqirgan ruhlar, yovuz ma’buda Hekate, qo‘mondon Banquo ruhi bilan uchrashamiz. Shekspir milliy madaniyat va ingliz tilini yaratish jarayonini yakunlaydi; uning ishi Yevropa Uyg‘onish davri butun davrining fojiali yakunini jamlaydi. Keyingi avlodlar idrokida Shekspir obrazi keng qamrovli daho sifatida shakllanadi, u yangi davr boshida uning insoniy tiplari va hayotiy vaziyatlari galereyasini yaratgan. Shekspir pyesalari bugungi kungacha jahon teatr repertuarining asosini tashkil etadi. Ularning aksariyati kino va televideniye uchun bir necha bor suratga olingan.

“Romeo va Juletta” tragediyasini yaxlit holda qiyosiy o‘rgangan tadqiqotni uchramagani aytiladi²¹. Sharq mutafakkiri Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni va G‘arb mutafakkiri Uilyam Shekspirning “Romeo va Juletta” tragediyasini qiyosiy o‘rganish ilk bor alohida tadqiqot sifatida olindi. Navoiyning “Layli va Majnun” hamda Shekspirning “Romeo va Juletta” tragediyasi ilk bor keng miqyosda qiyosiy tahlil qilindi. Ikkala asar badiiy tuzilishi, janr ko‘lami, kompozitsion xususiyatlari, poetika jihatidan tahlil etilib, asarlardagi an’anaviylik va o‘ziga xosliklar hamda ularni birlashtiruvchi va farqli omillar ilmiy asoslandi.

Tadqiqotda ikki ijodkorning adabiy-estetik tamoyillari, san’atkorlik mahorati milliy an’ana va jahon tafakkuri doirasida atroflicha tavsiflandi. Masalan, “Layli va Majnun” dostonini “Romeo va Juletta” tragediyasi bilan qiyoslash natijasida ikki

²¹ X. Mamatqulova Navoiyning “Layli va Majnun”, Shekspirning “Romeo va Julyetta” asarlarining qiyosiy tadqiqi. Samarqand-2010.

ijodkorning majoziy ishq konsepsiyasiga munosabatlarining g‘oyaviy yaqinligi ochib berildi. Navoiy va Shekspirning inson ruhiy kamoloti, uning jismoniy hamda botiniy barkamolligi masalasiga nisbatan o‘zaro umumiy va farqli munosabatlari ko‘rsatildi.

“...Har ne bir dostong‘a soldi sado,
Munda bir bayt birla tobqay ado.
Mujmal oning so‘zin qilib takmil,
O‘z hadisimg‘a bergamen tafsil”²².

Mutafakkirlarning asarlaridagi qisqa hikoya qo‘llash janri muhim tipologik xarakter sanaladi. A.Chexov aytganidek, qisqalik talantning singlisidir, Tolstoy ham hikoya janrining o‘ziga xos xususiyatlari haqida “hikoya san’atning qiyin fomasidir” deydi. Navoiy fikrini ixcham ta’riflab ifoda qilish uchun hikoyalardan foydalanadi. Shekspir asarlarida ham bu xususiyat bor. Muhimi, yirik so‘z san’atkorlarining hikoyalari hikmatga boy, chuqur g‘oyaviy, badiiy go‘zalligi, janr ko‘lami, kompozitsion xususiyatlari bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Hayitmetov A. “ Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti”. - Toshkent: Fan, 1996.
2. Alisher Navoiy “Hamsa” asari.
3. X.Mamatqulova “Navoiyning «Layli va Majnun», Shekspirning «Romeo va Juletta» asarlarining qiyosiy tadqiqi” tadqiqoti. Samarqand-2010.
4. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2021.

²² A.Navoiy. “Xamsa”.484-bet